

## ONA TILI DARSLARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH AFZALLIKLARI

(Advantages of organization of mother tongue lessons on the basis of  
innovative approach)



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-246-251>

Otayeva Maxfurat

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani, 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi  
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi  
“Shuhrat” medali sohibasi  
Tel: 914033131

### ANNOTATSIYA

*Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili va adabiyot fanini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitish o‘quvchi dunyoqarashining shakllanishi, og‘zaki nutqning rivojlanishi va ravon bo‘lishida alohida ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, darsda turli o‘yin va og‘zaki so‘rovlardan foydalanish, rasmlarga qarab gap tuzish, qiziqarli test savollariga javob topish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dars samaradorligini oshiribgina qolmay, balki mashg‘ulotning qiziqarli kechishiga sabab bo‘lishi misollar yordamida keng ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, dunyoqarash, og‘zaki nutq, yozma nutq, muammoli vaziyat, mustaqil o‘rganish.

### ABSTRACT

*The article discusses the use of modern information technologies, taking info account individually-differentiated approach that creates a creative atmosphere on the lessons of their mother tongue. According to the author of the excellent subject knowledge, broad erudition, pedagogical culture will allow for high levels of teacher training . Also, use all the features of the contemporary lessons active forms and methods of education for the development of the individual student.*

**Keywords:** Language, tone, connective words, individually differentiated approach, modern lesson, pedagogical culture, the opportunity.

### KIRISH

Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni amaliyatga joriy qilishning keyingi bosqichlarida barcha o‘quv fanlari bilan bir

qatorda adabiy ta’lim tizimida ham ta’lim metodlarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqish, tabaqalashtirilgan ta’lim mazmuni va metodlarini yaratish, ularni ma’rifiy-ma’naviy tarbiyaga mos ravishda takomillashtirish ishlari davom ettirildi. Xususan, o‘zbek tili o‘quv mazmunida adabiy materialni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Til ta’limi sohasida asosiy natija o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan keng foydalangan holda fikrni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalash ko‘nikmalarining shakllanganlik hamda rivojlanganlik darajasi bilan baholanadi. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida nutqning asosiy materiali-so‘z ustida ishlash, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini shakllantirish nutq madaniyatini rivojlantirish sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Komil inson tarbiyalashda maktab ta’limida yetakchi fan hisoblangan ona tili fanining o‘rni beqiyosdir. Ona tili ta’limining asosiy talablariga ko‘ra, o‘quvchi mavzu bo‘yicha belgilangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash uchun darslikdagi mashq va topshiriqlarni mustaqil, ijodiy fikrlash orqali bajarish kerak. Shuningdek, berilgan topshiriqlarni bajarishda kuzatish, umumiylikni topish, farqlarni aniqlash, qiyoslash, tasniflash, xulosa chiqarish, amaliyotda qo‘llash kabi amallarni bajarish kerak. Afsuski, keying paytlarda til va nutq ta’limida quyidagi muammolarga duch kelyapmiz.

### O‘quvchilar nutqidagi tipik kamchiliklar

- Matnda mavzuga uyg‘un holda asosiy fikrni yoritib bera olmaslik;
- So‘z tanlashdagi xatoliklar, ma’nodosh so‘zlardan foydalana olmaslik;
- Bitta gap yoki yondosh gaplarda bir so‘zni o‘rinsiz takrorlash;
- Gap tuzishda so‘zlar tartibiga e’tibor bermaslik ,gap bo‘laklari o‘rnini chalkashtirish;
- Ko‘proq bir qolipdagi oddiy va sodda sintaktik qurilmalarni qo‘llash;
- Yozma nutqda murakkablashgan sodda gaplar qo‘shma gaplarning deyarli ishlatilmasiligi;
- Turli tasvir vositalari ishlatilgan jumlalar ,hissiy-ta’siri bo‘yoq bildiruvchi ifodalarning qo‘llanmasligi.

Xo‘s, bunday vaziyatda nima qilish kerak, degan savol tug‘iladi. Fikrimizcha, ayni chog‘da, lo‘nda qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’limda “Grammatika-grammatika uchun emas, balki “Grammatika –fikrning aniq va lo‘nda ifodasi uchun” shioriga amal qilish maqsadga muvofiq. Buning uchun: O‘quvchilarning aniq va

ravon so‘zlashlariga qaratilgan , o‘z pedagogik faoliyatim davomida dars tashkil qilishda ayrim usullardan foydalanish xususidagi fikr-mulohazalarimni kasbdoshlarim e’tiboriga havola etmoqchiman.

Ona tili darslarini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o‘quvchilarda mustaqil ishslash, shuningdek, ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda “Juftlikda ishslash”, “Kichik guruhlarda ishslash”, “Daraxt yechimi”, “tugallanmagan gap mashqi”, “Charxpalak”, “Adashgan so‘zni topish”, “Chalkash ma’lumotlar”, “Alifbo”, “Tarozi”, “Loto”, “Qora quti” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchi mehnati samaradorligini ta’minlaydi. Shulardan o‘z tajribamda sinalgan “Charxpalak” texnologiyasini ko‘rib chiqamiz.

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarining egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

**Texnologiyaning maqsadi.** Texnologiya o‘quv mashg‘ulotining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetning biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, oraliq va yakuniy nazorat o‘tish uchun mo‘ljallangan.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi.** O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi, talab va qoidalar tushuntiriladi. Guruhlarga mos tarqatma materiallar tarqatiladi. Har bir guruh a’zosi o‘zi ishlagan tarqatma materiallarining o‘ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o‘zining ramziy belgisini chizib qo‘yadi. Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga “charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi. 11-sinfda “O‘zbek tili va uning taraqqiyoti” mazusini o‘tishda “Charxpalak” usulidan foydalanamiz. 1-guruh fikrini 2-guruh, 2-guruh fikrini 3-guruh, 3-guruh fikrini 1-guruh davom ettirib charxpalak hosil qiladi. Qaysi guruh fikr topa olmasa o‘sha guruh o‘yinni tark etadi.

**Izoh:** reja bo‘yicha belgilangan mavzu asosida hamda o‘qituvchining qo‘ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlashga,mashqlar bajarishga, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar guruhlar soniga qarab tayyorlanadi. Biz mashqdan kelib chiqib barcha guruhlarga til deganda nimani tushunasiz ? degan bir xil tarqatma berib har xil javob olishga harakat qildik. Fikrlar ketma-ket guruhlararo amalga oshiriladi. Masalan o‘qituvchi tomonidan har bir guruh 20 ta fikr yig‘ish kerak bo‘lsa, 15-16 ta o‘quvchilar tomonidan fikr yig‘ilgan bo‘lsa, o‘quv materiali o‘zlashtirilgan hisoblanadi. Har bir to‘g‘ri fikr uchun 1 ball beriladi va guruh baliga qo‘sib boriladi.

O‘quvchilar matnga mos sarlavhalar topadilar. Agar e’tibor berayotgan bo‘lsangiz darslikdagi har bir topshiriq va mashqlarga namuna berib, yosh o‘qituvchilarimizga metodik tavsiyalar ham taklif qilib bormoqdamiz. Chunki mavzumiz mantiq, mustaqil fikrlash, izlanish, isbotlash, izohlash, tahlil qilish, yangiliklar yaratish, ruhiy holatlardan chiqish, manbalar bilan ishlash, ziddiyatsiz raqobatni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. **(tajriba va izlanishlar asosida)**

**1-guruh** -Til dilga yo‘l topadi. **2-guruh**-Til- insonni hayvondan ajratuvchi vosita.

**3-guruh** Til-yangi hayot mezoni. **1-guruh** Til tufayli bilim avlodga o‘tadi.

O‘uvchilar o‘z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, o‘qituvchi vazifa bajarilgan qog‘ozlarni yig‘ib oladi va baho (ballar)ni guruh jurnaliga ko‘chirib qo‘yadi.

“**Charxpalak**” texnologiyasidan foydalangan holda mashg‘ulot o‘tkazish uchun o‘quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin. Vazifa uchun zarur bo‘lgan tarqatma materialni ilovada keltiramiz.

### Mavzu: O‘zbek maqol va matallari.

Vazifa. Berilgan maqol va matallarning mazmunini aniqlang va belgilang.

Maqol va matallar	Xudbinlik haqida	Mehnat haqida	Tarbiya haqida	Vatan haqida	Ilm olish haqida	Do‘stlik haqida
O‘zim degan o‘zaksiz ketar	*					
Qush uyasida ko‘rganini qiladi			*			
Ustoz bilimli-shogird ilmli					*	
Mehnat-mehnatning tagi rohat		*				
Har gulga o‘z butasi aziz				*		
Do‘stlik-boylikdan afzal						*

### **“Charxpalak” texnologiyasining afzalligi**

- 1.O‘quvchilarni guruh bo‘lib ishlashga, ya’ni hamjihatlikka o‘rgatganligi;
2. Kafolatlangan natijaga yo‘naltirilganligi;
- 3.O‘quvchilarni o‘rtasida sog‘lom raqobatni yo‘lga qo‘yilganligi;
4. O‘quvchilarda mustaqil ishlash va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;
5. Komunikativ shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish;
6. O‘quvchilarimizda milliy qadriyatlarni bilishga qaratilganligi;

### **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qo‘llanilgan usullar o‘quvchilarning intellektual faollik, qiziqishlari hamda moyilliklaridan kelib chiqqan holda bilimlarning ortishi va ko‘nikmalarining malakaga aylana borishini ta’minkaydi. Ta’lim sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma’naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-T.,”Ma’naviyat”, 2008.
2. Mahmudov N. M Odilov Y.R Ziyodullayeva G.Sh Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf uchun darslik. Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
3. Hamroyev M.A. O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi.-T., 2011
4. Ishmuhamedov R.J Yuldashev M.A Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T., 2017
5. Xalq ta’limi . O‘zbekiston Respublikasining Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali.5-son. 2014.-51-b.
6. ХАСАНОВА Г. Х. General and professional education systems of Uzbekistan and Japan: a comparative analysis //Иностранные языки в Узбекистане. – 2020. – №. 1. – С. 83-97.
7. Khusanova K. G. MAIN TRENDS OF MODERNIZATION OF EDUCATION SYSTEM: NATIONAL AND INTERNATIONAL ANALYSIS //ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ. – 2020. – Т. 54. – №. part 2. – С. 38.
8. Хашимова С. НЕКОТОРЫЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ И СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УДВОЕНИЯ В ЯПОНСКОМ ЯЗЫКЕ. - Страны. Языки. Культура. – С. 334-338.

- 
9. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.
  10. Насирова, С. А. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии. In *Китайская лингвистика и синология* (pp. 384-387).
  11. Насирова, С. А. (2021). ВОЕННАЯ СИСТЕМА ДРЕВНЕГО КИТАЯ: ОБЗОР ТЕРМИНОВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1*(Special Issue 1), 139-146.
  12. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10